



RAQAMLI FISKAL BOSHQARUVDA BARQARORLIK REYTINGINING METODOLOGIK ASOSLARI VA AMALIY SAMARASINI BAHOLASH

Abdullayev Zafarbek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0000-2685-5398

zafarbek.abdullayev555@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi asosida ishlab chiqilgan baholash tizimining iqtisodiy, huquqiy va metodologik asoslari tahlil qilinadi. Reyting mezonlari xalqaro reyting amaliyotlari bilan qiyosiy o'rganiladi, raqamli fiskal boshqaruv va soliq intizomi tamoyillari bilan uyg'unligi tahlil etiladi. Tizimdagi amaliy muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqot O'zbekiston sharoitida fiskal islohotlar samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan nazariy va amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: barqarorlik reytingi, fiskal boshqaruv, soliq intizomi, tadbirkorlik subyekti, raqamli transformatsiya, baholash mezonlari, avtomatlashtirilgan platforma, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), aylanmadan olinadigan soliq (AOS), reyting metodologiyasi, fiskal islohot, xalqaro reyting tizimlari.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ РЕЙТИНГА УСТОЙЧИВОСТИ В ЦИФРОВОМ ФИСКАЛЬНОМ УПРАВЛЕНИИ

Абдуллаев Зафарбек

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье рассматриваются экономические, правовые и методологические основы системы рейтинга устойчивости субъектов предпринимательства, разработанной на основе нормативных документов Республики Узбекистан. Показатели рейтинга анализируются в сравнении с международными рейтингами, а также с точки зрения цифрового фискального управления и налоговой дисциплины. Выявлены ключевые проблемы, даны практические предложения по их устранению. Работа содержит теоретические и прикладные выводы, направленные на повышение эффективности фискальных реформ в стране.

Ключевые слова: рейтинг устойчивости, фискальное управление, налоговая дисциплина, субъекты предпринимательства, цифровая трансформация, оценочные критерии, автоматизированная платформа, НДС, налог с оборота, методология рейтинга, фискальные реформы, международные рейтинговые системы.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL EFFECTIVENESS OF THE STABILITY RATING IN DIGITAL FISCAL GOVERNANCE

Abdullayev Zafarbek

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article analyzes the economic, legal, and methodological foundations of the business entity stability rating system developed under Uzbekistan's regulatory framework. The rating indicators are reviewed in comparison with international practices and evaluated in the context of digital fiscal governance and tax discipline. Practical challenges in the system are identified, and improvement recommendations are proposed. The study provides theoretical insights and policy suggestions aimed at enhancing the effectiveness of fiscal reforms in Uzbekistan.*

Keywords: *stability rating, fiscal governance, tax discipline, entrepreneurial entities, digital transformation, assessment indicators, automated platform, VAT, turnover tax, rating methodology, fiscal reforms, international rating systems.*

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tadbirkorlik subyektlarining fiskal intizomi, soliq shaffofligi va institutsional barqarorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish va ishonchga asoslangan davlat–biznes munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar joriy etilmoqda. Ayniqsa, soliq intizomini raqamli indikatorlar asosida baholovchi, real vaqt rejimida avtomatlashtirilgan tahlillarni amalga oshiruvchi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi" tizimi innovatsion fiskal boshqaruv mexanizmi sifatida shakllantirildi (Mirziyoyev, 2024; Aripov, 2024). 2024-yil 23-yanvardagi PQ-39-sonli Prezident qarori va Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-yanvardagi 55-son qaroriga asosan mazkur tizim normativ-huquqiy va metodologik asosda joriy etildi.

Mazkur reyting tizimi yuridik shaxslarning iqtisodiy samaradorligi, soliq intizomi, moliyaviy shaffofligi, raqamli infratuzilmaga integratsiyalashuvi va ijtimoiy mas'uliyat ko'rsatkichlarini zamonaviy avtomatlashtirilgan elektron platforma orqali tizimli baholashni amalga oshiradi. Ushbu baholash natijalari selektiv fiskal rag'batlantirish, soliq va kredit imtiyozlarini manzilli taqsimlash, budjet resurslarini samarali yo'naltirishda strategik axborot vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, reyting tizimi davlat–xususiy sektor o'rtasida o'zaro ishonch muhitini mustahkamlash, iqtisodiy xulq-atvorni tartibga soluvchi normativ mexanizmni shakllantirish hamda soliq siyosatini riskga asoslangan differensial yondashuv asosida olib borish imkoniyatini yaratadi.

Ushbu maqolada reyting tizimining shakllanishi, huquqiy, nazariy va metodologik asoslari, baholash mezonlarining tasnifi, ularning raqamli tahlil mexanizmlari, shuningdek reyting tizimining fiskal boshqaruvdagi amaliy o'rni chuqur yoritiladi. Metodologik yondashuvda xalqaro reyting tizimlari (S&P, ESG, Doing Business) bilan taqqoslama tahlillar, shuningdek milliy reyting mezonlari bo'yicha diagnostik baholash usullari keltiriladi. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan takomillashtirish takliflari, algoritmik baholash, axborot texnologiyalariga asoslangan monitoring va reyting natijalarini iqtisodiy siyosatda qo'llash yo'nalishlari orqali milliy tizim samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy asoslari bayon qilinadi.

Adabiyotlar sharhi.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi tizimi bo'yicha adabiyotlar sharhi ushbu sohadagi ilmiy, metodologik va amaliy yondashuvlarni tizimli tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, reyting tizimining shakllanishi, baholash mezonlari, xalqaro tajribalar bilan qiyoslanishi

hamda mavjud ilmiy qarashlar asosida takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Sharhda asosiy e'tibor so'nggi yillarda chop etilgan zamonaviy ilmiy maqolalar, rasmiy hujjatlar va reyting tizimiga oid metodologik manbalarning tanqidiy tahliliga qaratiladi.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi tizimi O'zbekiston Respublikasida 2024-yil 23-yanvardagi PQ-39-son Prezident qarori va 2024-yil 30-yanvardagi 55-son Vazirlar Mahkamasi qarori asosida joriy etildi. Mazkur huquqiy hujjatlar ushbu tizimning institutsional shakllanishini belgilab berib, reyting mezonlari, baholash indikatorlari, ularning tartibli e'lon qilinishi, reyting natijalarining ochiqdigi (Mirziyoyev, 2024; Aripov, 2024) va davlat soliq siyosatiga integratsiyalashuvini huquqiy jihatdan mustahkamlab berdi. Tizimning huquqiy bazasi raqamli fiskal boshqaruvga asoslangan yondashuvlar, real vaqtli monitoring, avtomatlashtirilgan tahlil, soliq xavflarini baholash va selektiv rag'batlantirish tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi. Shu orqali reyting tizimi nafaqat tartibga soluvchi vosita, balki fiskal intizomni kuchaytiruvchi strategik mexanizm sifatida qaralmoqda.

Nurmatov tomonidan olib borilgan tadqiqotda (Nurmatov, 2024) reyting tizimining xorijiy tajribalar bilan solishtirilgan tahlili berilgan bo'lib, u mazkur tizimni baholashda ishlatiladigan indikatorlar, vazn koeffitsientlari va avtomatlashtirilgan algoritmlar asosida ishlash prinsiplariga to'htalgan. Muallif soliq va moliyaviy ko'rsatkichlarni integratsiyalash va baholash mexanizmlarini nazariy jihatdan yondashgan.

Yakshiboeva tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa (Yakshiboeva, 2024) reyting tizimini shakllantirishda foydalaniladigan zamonaviy yondashuvlar, xususan moliyaviy turg'unlik, iqtisodiy samaradorlik, raqamlashtirish darajasi va ijtimoiy mas'uliyat ko'rsatkichlarga to'htalgan. Muallif bu ko'rsatkichlarning har biri uchun qo'llaniladigan metodik yondashuvlarni ko'rib chiqqan. Ushbu yondashuvlar reyting tizimining ilmiy-nazariy bazasini mustahkamlash bilan birga, amaliy qo'llanilishini yanada aniq va samarali qilishga xizmat qiladi.

Davranovning tadqiqotida (Davranov, 2024) reyting tizimining real sektor va fiskal boshqaruvdagi amaliy imkoniyatlari tahlil qilingan. Xususan, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini baholash orqali soliq risklarini aniqlash, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va budjet daromadlarining barqarorligini ta'minlash mexanizmlarini asoslab bergan. Muallifning yondashuvi reyting tizimini nafaqat nazariy baholash vositasi, balki fiskal siyosatning operativ boshqaruv instrumenti sifatida qarash imkonini beradi.

Reyting tizimi tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy va fiskal intizomini tizimli tahlil qilish orqali ularning moliyaviy shaffofligini oshirish, soliqqa oid risklarni oldindan aniqlash va yashirin iqtisodiy faoliyat hajmini qisqartirishga xizmat qiladi. Mazkur tizim selektiv nazorat choralari belgilash, soliq yukini adolatli taqsimlash va raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda muhim metodologik vosita sifatida qaralmoqda. Reyting baholari asosida subyektlarga differensial soliq yondashuvi, kredit imtiyozlari, grantlar va boshqa fiskal rag'batlantirish mexanizmlari taqdim etilishi nazarda tutilgan bo'lib, bu holat milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va tadbirkorlik muhitini sog'lomlashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy global iqtisodiyotda moliyaviy barqarorlik, kreditga layoqatlilik va institutsional ishonchlilik darajalarini baholashda xalqaro reyting tizimlari muhim vosita sifatida e'tirof etiladi. Turli mamlakatlar va kompaniyalar reyting baholari orqali investorlar, moliyaviy tashkilotlar va xalqaro institutlar e'tiborini jalb qilish, kredit resurslariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda iqtisodiy islohotlar samaradorligini namoyon etishga intiladilar. Quyida eng muhim va keng qo'llaniladigan reyting tizimlarining nazariy va metodologik asoslari tahlil qilinadi.

S&P Global Ratings — xalqaro miqyosda eng nufuzli reyting agentliklaridan biri bo'lib, u davlatlar va korporatsiyalarning kreditga layoqatliligi, moliyaviy barqarorligi, byudjet intizomi va qarzlarni boshqarish salohiyatini aniqlovchi kompleks tahlillarni amalga oshiradi. Uning reyting metodologiyasi makroiqtisodiy barqarorlik, fiskal siyosat samaradorligi, tashqi balans, suveren risklar, institutsional salohiyat va soliq-huquqiy muhit kabi ko'rsatkichlarga

asoslanadi. Ayniqsa, soliq intizomi va fiskal barqarorlik indikatorlari reyting bahosini shakllantirishda strategik ahamiyat kasb etadi. S&P reytinglari davlatning moliyaviy obro'sini aniqlash, investorlar ishonchini oshirish (S&P Global Ratings, 2023) va kredit resurslariga bo'lgan kirish imkoniyatini belgilashda hal qiluvchi o'rin tutadi.

ESG reyting tizimi (Environmental, Social, Governance) — korxona yoki davlatlarning ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat va boshqaruv tizimining sifat darajasini aniqlovchi kompleks baholash tizimidir (Louche & Hebb, 2017). Ushbu model atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, energiya samaradorligi, chiqindilarni boshqarish, mehnat sharoitlari, inson huquqlarini hurmat qilish, boshqaruvdagi shaffoflik va korrupsiyaga qarshi mexanizmlarning mavjudligi kabi ko'rsatkichlarga asoslanadi. ESG reytinglari korporativ barqarorlik va uzoq muddatli investitsiyaviy jozibadorlikni aniqlashda xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan keng qo'llaniladi. **Doing Business** — Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan ushbu reyting tizimi mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyatining qanchalik qulay va xavfsiz amalga oshirilishini baholaydi (World Bank, 2020; 2024). Reyting biznesni ro'yxatdan o'tkazish, litsenziyalash, soliqqa tortish, mulk huquqlari, shartnomalarni tuzish va ijro etish, elektr tarmoqlariga ulanish, kredit olish imkoniyati, investorlar huquqlarini himoya qilish va tashqi savdo tartiboti kabi 10 dan ortiq indikatorlar asosida shakllanadi. 2024-yildan boshlab, bu reyting tizimi yangilangan "Business Ready" modeli bilan almashtirilib, tartibga solish muhitining zamonaviy va kompleks bahosini taqdim etishga qaratilgan. Ushbu yondashuv mamlakatlarning biznes yuritishdagi institutsional qulayliklari va tartibga solish islohotlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, mazkur adabiyotlar sharhi O'zbekiston reyting tizimining xalqaro standartlar bilan metodologik uyg'unligi, ularning kontseptual asoslari bilan mosligi hamda mahalliy iqtisodiy, huquqiy va institutsional sharoitlarga qanchalik darajada moslashtirilganini har tomonlama ochib beradi. Tahlillar reyting indikatorlari, baholash algoritmlari va raqamli platformalarning qo'llanilish darajasi orqali nafaqat nazariy konsepsiyalarni, balki amaliy natijalarni ham yoritadi. Shu bilan birga, adabiyotlar asosida tizimni takomillashtirish, zamonaviy yondashuvlar va ilg'or xorijiy tajribalarni integratsiya qilish bo'yicha muhim ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi tizimini tahlil qilish va baholashda kompleks yondashuv asosida ilmiy-uslubiy asoslar ishlab chiqildi. Tadqiqot metodologiyasi reyting tizimining shakllanishi, baholash mezonlari va ularning amaliy qo'llanilishi bilan bog'liq bo'lgan nazariy, huquqiy va statistik jihatlarini qamrab oladi.

Tadqiqot yondashuvi sifatida deskriptiv (tasviriy) va analitik usullar, shuningdek xalqaro tajriba asosida qiyosiy tahlil usuli qo'llanildi. Reyting indikatorlari tahlili uchun diagnostik baholash, ularning algoritmik asosda ishlash mexanizmlari, shuningdek, avtomatlashtirilgan platforma orqali shakllantirilgan ma'lumotlar asosida raqamli monitoring yondashuvi tatbiq etildi. Tadqiqot jarayonida milliy normativ-huquqiy hujjatlar, Davlat soliq qo'mitasi axborot platformasi, reyting mezonlari bo'yicha amaliy slaydlar va statistik ma'lumotlar asosiy axborot manbasi sifatida foydalanildi.

Tadqiqotda yuridik shaxslarning iqtisodiy samaradorligi, fiskal intizomi, raqamli hisobot yuritish madaniyati va ijtimoiy mas'uliyatini ifodalovchi 23 ta reyting mezoni tahlil qilindi. Ushbu mezonlar umumiy, kamaytiruvchi va rag'batlantiruvchi ko'rsatkichlarga ajratilgan holda baholandi. Har bir indikatorning baholash algoritmi, ball berish mezoni va davriyligi alohida ko'rib chiqildi. Shuningdek, amaliy holatlar asosida ayrim subyektlar faoliyatidagi reyting ballarining shakllanishi va unga ta'sir etuvchi omillar misollar bilan tahlil qilindi.

Tanlanma sifatida 2023–2024-yillar oralig'ida reyting baholari aniqlangan yuridik shaxslar ichidan turli reyting darajalariga (AAA–D) ega bo'lgan 30 dan ortiq subyektlar maqsadli tanlab olindi. Baholashda faoliyat muddati, soliq intizomi, EHFlar bilan ishlash

ko'lam, ish haqi fondi, xodimlar soni, moliyaviy barqarorlik kabi mezonlar asosida reytingga ta'sir qiluvchi real omillar ko'rib chiqildi.

Metodologik yondashuvning ishonchliligi va aniqligi reyting tizimidagi indikatorlar orasidagi uzviy bog'liqlik, ularning iqtisodiy va soliq-huquqiy mazmuni bilan asoslandi. Reyting tizimining avtomatlashtirilganligi, inson omilining cheklanishi va real vaqt rejimidagi baholash imkoniyatlari natijalarning obyektivligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu orqali reyting natijalari nafaqat fiskal boshqaruv, balki selektiv soliq siyosati, kredit siyosati va moliyaviy monitoringda ishonchli axborot manbasi sifatida foydalanilmoqda.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Reyting tizimi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, xalqaro reytinglash tajribasi va raqamli baholash vositalariga tayangan holda shakllantirilgan. Tizim 23 ta mezondan iborat bo'lib, ular uch toifaga bo'linadi: **umumiy ko'rsatkichlar, ballarni kamaytiruvchi ko'rsatkichlar, va qo'shimcha ball beruvchi rag'batlantiruvchi ko'rsatkichlar**. Har bir ko'rsatkichning aniqlangan baholash algoritmi, vazn koeffitsienti va baholash davri mavjud.

Baholash jarayoni 100 ballik shkalaga asoslanib, avtomatlashtirilgan elektron platforma orqali real vaqt rejimida amalga oshiriladi. Platforma yuridik shaxslar faoliyatiga oid soliq, moliyaviy, mehnat va raqamli hujjat aylanishi bo'yicha ma'lumotlarni integratsiyalashgan tahlil asosida baholab, subyekt reytingini avtomatik aniqlaydi. Bu esa inson omilini cheklab, ob'ektivlik va shaffoflikni ta'minlaydi.

Shuningdek, reytingning muhim xususiyatlaridan biri u soliq ma'muriyatchiligini differensiallashtirish, fiskal intizomni kuchaytirish, ijtimoiy mas'uliyatni rag'batlantirish va iqtisodiy faollikni soliq yuki asosida baholash imkonini beradi. Tizimning metodologiyasi xalqaro mezonlar (S&P, Doing Business, ESG) bilan uyg'unlashtirilgan bo'lib, mahalliy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirilgan.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini shakllantirishda eng muhim komponentlardan biri bu **umumiy ko'rsatkichlardir**. Mazkur ko'rsatkichlar yuridik shaxsning moliyaviy barqarorligi, fiskal intizomi, operatsion samaradorligi va infratuzilma asoslari kabi holatlarni baholash imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. Reytingdagi umumiy ko'rsatkichlarning nisbiy og'irligi.

Yuqoridagi diagrammada tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlashda umumiy ko'rsatkichlarning nisbiy og'irligi tasvirlangan. Unda, soliq intizomi va EBITDA rentabellik mezonlari eng yuqori og'irlikka ega bo'lib, ular tadbirkorning fiskal tartib-intizomi va moliyaviy barqarorligini ifodalaydi. Faoliyat davomiyligi va ish haqi jamg'armasi ko'rsatkichlari operatsion tarix va ijtimoiy javobgarlikni o'lchaydi. Yer/mulk, EHFlar orqali realizatsiya, kamchiliklarni bartaraf etishda ichki infratuzilma, raqamli tartib va huquqiy

muomala madaniyatining indikatorlari sifatida baholanadi. Quyida har bir mezon bo'yicha tahlil keltiriladi.

Faoliyat davomiyligi. Yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanasidan boshlab faoliyat yuritgan yillari soni uning biznes hayot sikli va moliyaviy barqarorligini aniqlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu mezon kompaniyaning bozor iqtisodiyoti sharoitida vaqt sinovidan o'tganligini, faoliyatni davom ettirish salohiyatini hamda operatsion risklar darajasini kamaytirish qobiliyatini ifodalaydi. Ilmiy adabiyotlarda bu omil Gibrat qonuni va Hayot sikli nazariyasi (*OECD, 2021*) asosida qaraladi, ya'ni yirikroq va uzoq faoliyat yuritgan firmalar odatda pastroq o'sish sur'atiga ega bo'lsada, ular barqarorlik nuqtai nazaridan yuqoriroq baholanadi. Shu bois bu indikator reyting baholashda yuqori og'irlikka ega komponent sifatida ko'riladi.

EBITDA rentabellik. Bu ko'rsatkich korxonaning asosiy faoliyati natijasida yaratilgan iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda foydalaniladi. *EBITDA (Earnings Before Interest, Taxes, Depreciation and Amortization ya'ni foiz, soliq, amortizatsiya va eskirishdan oldingi daromad)* kompaniyaning moliyaviy natijalarini xarajatlarning o'zgaruvchan ta'sirisiz baholash imkonini beradi.

Rentabellik darajasi EBITDA ning sof tushumga nisbati sifatida hisoblanadi ($EBITDA \text{ margin} = EBITDA / \text{daromad} \times 100\%$). Ushbu indikator kompaniya moliyaviy barqarorligining, qarzlarini qoplash salohiyatining, investitsion jozibadorligining hamda ichki operatsion samaradorlikning nisbiy o'lchovi bo'lib xizmat qiladi. Amaliy jihatdan, bu ko'rsatkich bozor sharoitlarida sohaviy o'rtacha qiymat bilan qiyoslab baholanadi, bu esa uni reyting baholashda obyektiv indikatorga aylantiradi.

Yer va mulk. Ushbu mezon tadbirkorlik subyekting ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish faoliyatini yuritish uchun asosiy infratuzilma resurslariga ega ekanligini ifodalaydi. Yer uchastkalari va ko'chmas mulk ob'ektlarining mavjudligi kompaniyaning doimiy manzilgohda faoliyat olib borishini, investitsiyaviy asosga ega bo'lgan mol-mulk resurslarini shakllantirganligini va kredit olishda garov salohiyatini oshirish imkoniyatlarini bildiradi. Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, bu ko'rsatkich kompaniyaning uzoq muddatli operatsion sarmoya modeliga ega ekanligini, ijaraga asoslangan modellardan farqli ravishda ko'proq kapital asosli faoliyat olib borishini bildiradi. Amaliyotda esa, ko'chmas mulkka egalik qilish yoki uzoq muddatli ijarasi mavjud bo'lmagan kompaniyalarda soliqqa oid xavf ko'rsatkichlari yuqoriroq bo'ladi, chunki ularning joylashuvi, barqarorlik va nazorat qilish darajasi past bo'ladi. Shu bois, reytingda ushbu mezon muhim ahamiyat kasb etadi va soliqqa oid shaffoflikka bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ish haqi jamg'armasi. Bu indikator korxona tomonidan xodimlarga to'lanayotgan umumiy mehnat haqi fondining miqdori orqali bandlikning rasmiy darajasini va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash holatini ifodalaydi. Ilmiy nuqtai nazardan, ish haqi jamg'armasining o'sishi xodimlar soni va ularning mehnatiga adolatli kompensatsiya berilishini bildiradi, bu esa ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy inklyuzivlikni ta'minlovchi omil sifatida ko'riladi. Reyting tizimida bu mezon O'zbekiston bo'yicha MHTEK (mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori) asosida mintaqaviy va sohaviy o'rtacha ko'rsatkichlarga nisbatan baholanadi. Shuningdek, bu mezon korxonaning soliqqa tortish bazasidagi ochiqligini, ishchi kuchi bozoridagi qonuniy ishtirokini va formallashtirilgan ish joylarini ko'rsatadi. Amaliy jihatdan, sun'iy oshirilgan ish haqi fondi orqali reyting ballarini olish ehtimolini kamaytirish maqsadida tizimga dinamik kuzatuv va o'sish barqarorligini baholovchi mexanizmlar joriy etilishi tavsiya etiladi.

Soliq intizomi. Yuridik shaxsning davlat tomonidan belgilangan soliqqa oid majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarayotganligini baholashga xizmat qiladi. Soliq intizomi ikki asosiy tarkibiy elementdan iborat: birinchidan, soliq hisobotlarini qonunchilikda belgilangan muddatlarda topshirish va ikkinchidan hisoblangan soliq summalarini belgilangan muddatlarda to'lash. Ilmiy adabiyotlarda soliq intizomi soliq to'lovchilarning fiskal qonunlarga bo'ysunuvchanligi darajasini o'lchovchi indikator sifatida qaraladi va u fiskal siyosat

samaradorligini aniqlovchi asosiy omil hisoblanadi. Amaliy jihatdan, yuqori soliq intizomi davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlaydi, soliq organlarining operativ ma'lumotlar bazasini to'liq va yangilangan holatda saqlash imkonini yaratadi. Shu bois, reyting tizimida ushbu ko'rsatkich 10 ballik baholash mezoniga ega bo'lib, u obyektiv baholashda muhim ustuvorlikka ega komponent sanaladi.

EHFlar orqali xarid va realizatsiya. Ushbu mezon tadbirkorlik subyekting xo'jalik operatsiyalarida elektron hujjat aylanishi (EHF) vositalaridan qanday darajada foydalanayotganini va ushbu vositalar orqali hujjatlashtirilgan xaridlarning realizatsiya bilan uyg'unligini baholaydi. Ilmiy nazariyada bu ko'rsatkich raqamli fiskal intizom, soliq shaffofligi va kontragentlar bilan bo'ladigan operatsiyalarning qonuniyligini ta'minlovchi mexanizm sifatida e'tirof etiladi. EHFlarning to'liq va o'z vaqtida rasmiylashtirilishi soliq organlariga avtomatlashtirilgan monitoring olib borish imkonini beradi, bu esa noqonuniy savdo, tushumni yashirish va soxta korxonalardan foydalanish holatlarini aniqlashda muhim vositadir. Amaliy jihatdan, xarid qilingan tovarlarning keyinchalik realizatsiya qilinganligi bo'yicha foizli nisbat aniqlanadi. 70% va undan ortiq realizatsiya qilinmagan tovarlar bo'yicha reyting ballari kamaytiriladi, chunki bu holat ichki iste'molni sun'iy shishirish, zaxiralarni yashirish yoki soxta operatsiyalarni amalga oshirish ehtimolini bildiradi. Shu boisdan, EHF mezon reyting tizimida yuqori og'irlikka ega ko'rsatkich sifatida baholanadi.

Kamchiliklarni bartaraf etish. Bu ko'rsatkich soliq organlari tomonidan aniqlangan kamchiliklarga nisbatan tadbirkorlik subyekti tomonidan ko'rsatilgan reaksiyaning sifati va tezligini o'lchaydi. Ilmiy nazariy jihatdan, bu indikator institutsional bo'ysunuvchanlik va fiskal javobgarlik darajasini ifodalaydi. Kamchiliklarning ixtiyoriy ravishda, belgilangan muddatlarda va to'liq bartaraf etilishi soliq-huquqiy muhitda subyektning ishonchliligini ko'rsatadi. Amaliy jihatdan, bu ko'rsatkich soliq organlarining axborot tizimlari orqali aniqlangan holatlarning tahlili natijasida aniqlanadi va ballar quyidagi mezonlarga asoslanadi: kamchiliklar mavjud emas yoki asosli rad etilgan bo'lsa – 10 ball, ixtiyoriy bartaraf etilgan bo'lsa – 7 ball, soliq auditi tayinlangan holda bartaraf etilgan bo'lsa – 5 ball. Bu mezon orqali reyting tizimi subyektlarning o'z-o'zini nazorat qilish, soliq mas'uliyatini anglash va huquqiy ong darajasini baholaydi.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlashda umumiy ko'rsatkichlar bloki strategik ahamiyatga ega bo'lib, u korxonaning moliyaviy barqarorligi, fiskal intizomi, ijtimoiy mas'uliyati va infratuzilma imkoniyatlarini kompleks baholash imkonini beradi. Ayniqsa, **EBITDA rentabellik** va **soliq intizomi** indikatorlari reyting tizimining asosiy ustunlaridan biri bo'lib, korxonaning iqtisodiy salohiyati va qonunlarga rioya etish darajasini ifodalaydi. Ushbu umumiy mezonlarning har biri reytingning ob'ektiv va kompleks shakllanishini ta'minlaydi. Ularni mukammal tarzda baholash orqali mamlakatda sog'lom biznes muhiti va fiskal intizomni ta'minlash imkoniyati ortadi. Shu sababli, reyting baholashda bu mezonlarga asosiy e'tibor qaratilishi zarur.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini shakllantirishda nafaqat ularning ijobiy faoliyati, balki moliyaviy, institutsional va fiskal intizomdagi salbiy holatlar ham e'tiborga olinadi. Ayniqsa, muayyan xavf-xatar belgilariga ega bo'lgan korxonalarning reytingda past baholanishi reyting tizimining penal (jazolovchi) komponenti sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu indikatorlar orqali subyektlar faoliyatidagi beqarorlik, qonunbuzarlik xavfi yoki shaffoflik yetishmovchiligi aniqlanadi va bu holatlar reyting ballarining kamayishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, ushbu ko'rsatkichlar selektiv soliq nazoratini kuchaytirish, xavfga asoslangan yondashuvni shakllantirish va tartibga rioya qiluvchi subyektlarni ajratib olishga xizmat qiladi. Ilmiy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, salbiy indikatorlar orqali nafaqat hozirgi risklar, balki kelajakdagi tavakkalchilik tendensiyalari ham aniqlanishi mumkin. Quyida ushbu penal mezonlarning mazmuni, iqtisodiy mohiyati va amaliy natijalari har bir indikator kesimida tahlil etiladi (1-jadval).

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, reytingni shakllantirishda salbiy indikatorlar penal mexanizm sifatida xizmat qilib, korxonalarning moliyaviy va institutsional barqarorligiga

salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash imkonini beradi. Jadvalda keltirilgan omillar reyting tizimida ballarni kamaytirish orqali subyektlarni tartibga solishga xizmat qiladi.

1-jadval

Reytingga salbiy ta'sir qiluvchi asosiy omillar

Salbiy indikator	Ball kamayishi (foizda)	Tavakkalchilik darajasi	Misollar
Yuridik manzil/rahbariyat almashuvi	-5	Yuqori	Yashirin faoliyat, manipulyatsiya
Takroriy tuzatmalar (hisobotlarda)	-1 dan -5 gacha	O'rta-yuqori	Noto'g'ri rejalashtirish
Soliq qarzining mavjudligi, mol-mulkka ijro	-5 va ko'proq	Yuqori	Qayta-qayta qarzdorlik
QQS guvohnomasining bekor qilinishi	-10	Yuqori	QQS sxemalari
MHIKdan noto'g'ri foydalanish	-5	Yuqori	Soxta mahsulotlar, "zanjir"

Yuridik manzil va rahbariyatning tez-tez o'zgarishi kompaniya institutsional barqarorligining asosiy indikatorlaridan biri bo'lib, uning uzoq muddatli strategik rejalashtirish va tashkiliy barqarorlik darajasini aks ettiradi. Yuridik manzilning 12 oy davomida bir necha bor o'zgarishi, shuningdek rahbar shaxslarning tez-tez almashishi tadbirkorlik subyektining faoliyati doimiylikdan yiroq ekanligiga, boshqaruv tizimida sustkashlik yoki yashirin maqsadlar mavjudligiga ishora qiladi. Bu holat iqtisodiy nazariyada "informatsion asimmetriya" va "shubhali subyekt" kontseptsionalari bilan bog'liq bo'lib, reyting tizimida salbiy baholanadi va avtomatik ravishda ballarning kamayishiga olib keladi. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, yuridik manzilni tez-tez o'zgartiradigan yoki rahbariyatda doimiy o'zgarishlar kuzatiladigan korxonalar orasida soliqdan bo'yin tovlash, qalbaki hujjatlar va boshqa noqonuniy faoliyatlar bilan shug'ullanuvchi subyektlar soni yuqori bo'ladi.

Soliq hisobotlariga takroriy va noto'g'ri tuzatmalar kiritilish indikator yuridik shaxsning ichki moliyaviy nazorat tizimi qanchalik samarali tashkil etilganligini, buxgalteriya hisobining aniqlik darajasini va soliq majburiyatlariga bo'lgan yondashuvini baholashda muhim rol o'ynaydi. Ilmiy nazariy jihatdan, bu mezon axborot asimmetriyasi va agentlik nazariyasi kontekstida qaraladi, ya'ni menejerlar tomonidan investorlarga yoki davlat organlariga noto'g'ri yoki chala ma'lumotlar yetkazilishi ehtimoli mavjud bo'lgan holatlar sifatida talqin etiladi. Amaliy jihatdan, har bir tuzatmada bu kompaniya faoliyatida noto'g'ri rejalashtirish, hisobot topshirishdagi mas'uliyat yetishmasligi yoki ma'lumotlar bilan manipulyatsiya qilish ehtimolini bildiradi. Reyting tizimida takroriy tuzatmalar chastotasi, ularning tahlilga ta'siri va o'zgarishlar miqyosi hisobga olinib, ballar mos ravishda kamaytiriladi. Shuningdek, tizimda ilk bor tuzatma kiritilishi uchun ogohlantiruvchi, takroriy holatlar uchun esa penal baholash tizimi joriy etilgan.


Soliq qarzining mavjudligi va mol-mulkdan undirish choralari indikator esa korxonaning moliyaviy holatini, xususan, likvidlik darajasi, to'lovga layoqatlilik va fiskal majburiyatlarni bajarish qobiliyatini baholashda muhim mezon hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda bunday holat moliyaviy intizomning izdan chiqishi, qarz portfeli boshqaruvining sustligi va naqd oqimlaridagi uzilishlar bilan bog'lanadi. Ayniqsa, soliq qarzdorligi mavjud bo'lib, unga nisbatan mol-mulkdan majburiy ijro harakatlari qo'llanilsa, bu holat subyekt faoliyatining xavf ostida ekanligidan dalolat beradi. Reyting metodologiyasida bunday vaziyat ballarning sezilarli darajada pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, qarzning qayta-qayta yuzaga kelishi tizim tomonidan yuqori tavakkalchilik signali sifatida qayd etiladi va ushbu subyektlar soliq organlarining avtomatik monitoring tizimi tomonidan alohida e'tiborda kuzatiladi.

QQS guvohnomasining bekor qilinishi yoki to'xtatilishi, MHIKlar (mahsulot identifikatsiya kodlari)dan noto'g'ri foydalanish ko'rsatkichlari tadbirkorlik subyektining raqamli fiskal infratuzilmaga integratsiyalashuv darajasi va qonunchilikka sodiqlik ko'rsatkichlarini baholaydi. QQS to'lovchisi sifatidagi maxsus guvohnomaning bekor qilinishi yoki to'xtatilishi subyekt faoliyatida soliqdan bo'yin tovlash, soxta shartnomalar tuzish yoki noqonuniy xarajatlar orqali QQS summalarini noqonuniy tarzda qaytarib olish kabi tavakkalchiliklarni anglatadi. MHIKlarning noto'g'ri qo'llanilishi esa raqamli nazorat tizimlarini aldash, mahsulotlarni sun'iy ko'rsatish, kontragentlar o'rtasida «zanjirli soliq aylanmalari»ni shakllantirish kabi sxemalar bilan bog'liq. Ilmiy va amaliy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, bunday holatlar fiskal intizomga nisbatan befarqlik emas, balki ongli tarzda qonunbuzarlik bo'lish ehtimolini oshiradi. Shu sababli reyting baholash metodologiyasida bu mezon ballarni keskin kamaytiruvchi penal indikator sifatida belgilangan bo'lib, shubhali subyektlar sifatida monitoring ro'yxatlariga kiritiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, barqarorlik reytingini shakllantirishda salbiy indikatorlar penal mexanizm sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Yuridik manzil va rahbariyatning tez-tez o'zgarishi, hisobotlardagi takroriy tuzatmalar, soliq qarzining mavjudligi, QQS guvohnomasining bekor qilinishi va MHIKlardan noto'g'ri foydalanish kabi omillar tadbirkorlik subyektining institutsional, moliyaviy va fiskal barqarorligini susaytiradi.

Ushbu ko'rsatkichlar orqali nafaqat joriy faoliyatdagi beqarorlik, balki kelajakdagi tavakkalchiliklar va qonunbuzarlik ehtimoli ham aniqlanadi. Shuning uchun ular reytingda ballarni kamaytirish orqali selektiv nazoratni kuchaytirish, fiskal intizomni ta'minlash va shaffof faoliyat yurituvchi subyektlarni ajratib olishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, salbiy indikatorlar reyting tizimining samaradorligini oshirish va xavfga asoslangan boshqaruv yondashuvini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini shakllantirishda nafaqat salbiy xavf omillari, balki ularning iqtisodiy, fiskal va ijtimoiy faolligi darajasi ham e'tiborga olinadi. Aynan ijobiy ko'rsatkichlar korxonaning moliyaviy intizomi, qonunchilikka sodiqligi, ijtimoiy mas'uliyatni bajarayotganligi va iqtisodiy inklyuzivlikka qo'shgan hissasini ifodalaydi (2-rasm).



2-rasm. Ijobiy indikatorlarning reytingga ta'siri

Ushbu indikatorlar orqali davlat soliq siyosati doirasida formallashtirishni chuqurlashtirish, bandlikni rasmiylashtirish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish va ijtimoiy himoyadagi qatlamlarni ish bilan ta'minlash kabi maqsadlarga erishadi. Ilmiy nuqtai nazardan, ular "inklyuziv iqtisodiyot", "fiskal ishonchlilik", "samarali soliq yukining taqsimlanishi" kabi konsepsiyalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, reyting tizimida ijobiy ballar bilan baholanadi. Quyida mazkur indikatorlar iqtisodiy nazariy tamoyillar, davlat siyosatidagi ustuvorliklar va amaliy baholash mezonlari asosida tahlil qilinadi.

Ijtimoiy himoyadagi shaxslar bandligi. Mazkur indikator “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va ijtimoiy reyestrda qayd etilgan, nogironligi bo‘lgan fuqarolarni ishga qabul qilgan yuridik shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Ilmiy nuqtai nazardan, bu mezon inklyuziv iqtisodiyot konsepsiyasiga asoslanadi, ya‘ni iqtisodiy o‘shishdan barcha ijtimoiy qatlamlarning teng darajada manfaatdor bo‘lishi zarurligini ifodalaydi. Shu bois bu ko‘rsatkich orqali tadbirkorlik subyekti nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikka hissa qo‘shgan aktor sifatida baholanadi. Amaliy jihatdan esa, korxonada ishlovchi ijtimoiy zaif guruhlar sonining umumiy ishchi kuchiga nisbatan ulushi 10–20% bo‘lsa – 5 ball, 20% dan yuqori bo‘lsa – 10 ball belgilanadi. Bu ko‘rsatkich ijtimoiy kapital, mehnat bozori inklyuzivligi va korxona imijiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, davlat tomonidan ushbu subyektlar uchun soliq imtiyozlari, grantlar va preferensiyalar ko‘rinishida qo‘shimcha rag‘batlantirish choralari qo‘llaniladi.

MHTEKdan yuqori ish haqi to‘lanayotgan xodimlar sonining o‘shishi. Mazkur indikator yuridik shaxsning mehnat munosabatlarini rasmiylashtirishga bo‘lgan yondashuvi, yashirin iqtisodiy faoliyatdan chiqish darajasi va soliq bazasining kengayishiga qo‘shgan hissasini baholaydi. Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoridan yuqori bo‘lgan ish haqi korxonaning moliyaviy salohiyati, ishchi kuchiga bo‘lgan munosabati va iqtisodiy shaffofligini ifodalaydi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu mezon “formallashtirish darajasi”, “fiskal ishonchlilik” va “bandlik sifati” kontseptsionalari bilan bevosita bog‘liq. Ayniqsa, o‘shib borayotgan yuqori ish haqi fondi kompaniyaning inson kapitaliga investitsiya kiritayotganligini, xodimlar barqarorligini saqlab qolish istagini bildiradi. Amaliy jihatdan esa, ushbu ko‘rsatkich asosida soliq organlari bandlikni rasmiylashtirish hajmi, sug‘urta fondlariga to‘lovlar va iqtisodiy kontraktlashuv darajasi bo‘yicha baholash mexanizmini shakllantiradi. Reyting tizimida bu indikator soliqqa oid shaffoflik va ijtimoiy javobgarlik darajasini ko‘rsatuvchi asosiy vositalardan biridir.

QQS va AOS bo‘yicha hisoblangan soliq summasining sohaviy o‘rtachaga nisbati. Bu indikator yuridik shaxsning soliq salohiyati, iqtisodiy faoliyat hajmi va byudjetga qo‘shgan fiskal hissasini baholashda markaziy o‘rin egallaydi. Ilmiy yondashuvda bu mezon “fiskal intensivlik” va “tarmoq samaradorligi” konseptlari bilan uyg‘un bo‘lib, subyektning umumiy tushumga nisbatan to‘layotgan QQS yoki AOS summasi orqali soliqqa oid faollik darajasini ko‘rsatadi. Amaliy jihatdan soliq organlari tomonidan qo‘llaniladigan benchmarking usuli asosida ushbu ko‘rsatkich tarmoq bo‘yicha o‘rtacha darajaga nisbatan solishtiriladi. Agar subyektning QQS yoki AOS summasi soha o‘rtachasidan 1,1 barobar yuqori bo‘lsa yoki uning eksport ulushi umumiy realizatsiyaning 50 foizidan ortiqni tashkil etsa, u fiskal jihatdan faol, qonuniy va iqtisodiy jihatdan barqaror subyekt sifatida baholanib, qo‘shimcha ball bilan rag‘batlantiriladi. Ushbu yondashuv iqtisodiy nazariyadagi “mahsulotdan olinadigan soliq rentasi”, “vertikal fiskal muvozanat” va “soliq to‘lovchilar bazasi raqobati” kabi tamoyillar bilan bevosita uyg‘unlikda ishlaydi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan ijobiy indikatorlar tadbirkorlik subyekting iqtisodiy samaradorligini, ijtimoiy mas‘uliyatini va fiskal intizomini kompleks baholash imkonini beradi. Ular orqali davlat reyting tizimi orqali formallashtirish, inklyuziv iqtisodiyotni rivojlantirish va fiskal barqarorlikni ta‘minlash kabi strategik maqsadlarga erishadi. Ushbu indikatorlarning reyting tizimidagi mavjudligi nafaqat yuqori ball olish imkoniyatini, balki ijtimoiy-iqtisodiy siyosatga faol integratsiyalashgan, qonuniy va mas‘uliyatli subyekt sifatida tan olinishni ham ta‘minlaydi.

Barqarorlik reytingi tizimini mukammallashtirish, baholashda aniqlik va ob‘ektivlikni ta‘minlash, shuningdek, ilg‘or metodologik yondashuvlarni tatbiq etish uchun xalqaro reyting amaliyotlari bilan qiyosiy tahlil muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo tajribasida reyting tizimlari nafaqat iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni, balki ijtimoiy mas‘uliyat, boshqaruv sifati, raqamli intizom va korporativ ishonchlilikni ham baholash vositasi sifatida shakllangan. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda joriy etilgan barqarorlik reytingi tizimini S&P Global Ratings, ESG (Environmental, Social, Governance) va Doing Business kabi xalqaro reyting platformalari bilan

taqqoslash, uning nazariy asoslarini boyitish, indikatorlar bazasini kengaytirish hamda amaliy samaradorligini oshirish uchun muhim metodologik asos yaratadi. Quyida mazkur reytinglar va O'zbekiston modeli o'rtasidagi asosiy farqlar va o'ziga xosliklar tahlil qilinadi (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston barqarorlik reyting tizimi bilan qiyosiy tahlil

Xalqaro reyting tizimi	O'zbekiston reyting tizimi bilan o'xshash jihatlar	Farqli jihatlar
S&P, Moody's, Fitch	AAA-D shkalasi o'xshash	Xalqaro reytinglar investorlar uchun mo'ljallangan, O'zbekistonda esa fiskal tartib va rag'batlantirish maqsadida
ESG reytingi	Ijtimoiy va boshqaruv ko'rsatkichlari o'xshash	Ekologik ko'rsatkichlar O'zbekiston reytingida yo'q yoki zaif
Doing Business	Soliqqa oid yondashuv, tartiblar	DB tizimi islohotlar va tartib soddaligi bo'yicha, O'zbekiston tizimi esa fiskal intizom va real faoliyat asosida

Xalqaro reyting amaliyotlari bilan qiyosiy tahlil O'zbekistonda joriy etilgan barqarorlik reytingi tizimining metodologik asoslarini mukammallashtirish, indikatorlar bazasini kengaytirish va baholashdagi ob'ektivlik darajasini oshirish imkonini beradi. Bugungi kunda xalqaro miqyosda iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy va institutsional jihatlarni qamrab oluvchi turli reyting platformalari mavjud bo'lib, ularning metodikasi milliy reyting tizimi uchun muhim taqqoslash nuqtalarini taqdim etadi. Quyida ba'zi ilg'or amaliyotlar va O'zbekiston modeli o'rtasidagi asosiy farqlar bayon etiladi.

S&P Global Ratings. Ushbu reyting agentligi suveren va korporativ emitentlarning kreditga layoqatliligini baholaydi hamda moliyaviy turg'unlik, qarz majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish salohiyati, kredit risklari va davlat moliyaviy boshqaruvining ishonchliligini asosiy mezon sifatida ko'radi. Metodologik jihatdan, S&P reytingi makroiqtisodiy barqarorlik, byudjet taqchilligi, tashqi balans holati, institutsional salohiyat va siyosiy barqarorlik indikatorlari orqali shakllantiriladi. Ushbu yondashuv davlatning moliyaviy obro'si va investorlar uchun xavf darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

ESG reyting (Environmental, Social, Governance). Ushbu reyting tizimi kompaniyalar va davlatlarning ekologik barqarorlik (Environmental), ijtimoiy mas'uliyat (Social) va boshqaruv sifati (Governance) mezonlariga asoslangan baholash modelini ifodalaydi. Ekologik mezonlar doirasida atrof-muhitga salbiy ta'sir, energiya samaradorligi, chiqindilarni boshqarish kabi omillar ko'rib chiqiladi. Ijtimoiy mezonlar mehnat sharoitlari, inson huquqlari, tenglik va mahalliy jamoalar bilan ishlash darajalarini o'z ichiga oladi. Boshqaruv mezonlari esa menejment strukturasining shaffofligi, audit jarayonlari, korrupsiyaga qarshi mexanizmlar va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish holatlarini baholaydi. ESG reytinglari korporativ barqarorlikni baholashda tobora muhim vosita sifatida tan olinmoqda.

Doing Business (World Bank). Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan ushbu reyting tizimi mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyatining qanchalik qulay va xavfsiz amalga oshirilishini baholaydi. U biznesni boshlash osonligi, soliq yukining miqdori va tartiboti, shartnoma tuzish va ijrosini ta'minlash, litsenziyalash va qurilishga ruxsat olish, elektr tarmoqlariga ulanish, mulkni ro'yxatdan o'tkazish, kredit olish imkoniyati, investorlar huquqining himoyasi va tashqi savdo tartiboti kabi 10 dan ortiq indikatorlar asosida tuziladi. Ushbu reyting institutsional muhitning samaradorligi va huquqiy infratuzilmaning tadbirkorlik rivojiga qanchalik ko'maklashayotganini baholashga xizmat qiladi.

O'zbekistonning Barqarorlik reytingi tizimi yuqorida ko'rib chiqilgan xalqaro reyting modellari bilan metodologik jihatdan taqqoslaganda quyidagi o'ziga xosliklarga ega:

- Reyting mezonlari O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati organlari tomonidan shakllantirilgan soliq axborot tizimlariga integratsiyalashgan holda, avtomatlashtirilgan

analitik platformalar orqali yig'ilgan ma'lumotlarga asoslanadi. Ushbu yondashuv reyting baholash jarayonida inson omilini minimallashtirish, real vaqt rejimida monitoring olib borish va subyektlarning fiskal intizomi bo'yicha obyektiv baho berishni ta'minlaydi.

- Har bir reyting ko'rsatkichi Davlat soliq qo'mitasi va tegishli axborot tizimlaridan kelib tushgan ma'lumotlar asosida real vaqt rejimida avtomatik tarzda monitoring qilinadi. Bu jarayon raqamli izlar orqali amalga oshiriladi va inson aralashuvisiz ishlovchi algoritmlar orqali baholanadi, bu esa reytingni shakllantirishda xolislik va aniqlikni ta'minlaydi.

- Tizim yuridik shaxslarning soliq intizomi, raqamlashtirish darajasi, fiskal barqarorligi, moliyaviy shaffofligi va ijtimoiy javobgarlik ko'rsatkichlarini integratsiyalashgan tarzda baholaydi. Ushbu yondashuv orqali nafaqat soliqqa oid majburiyatlarning bajarilishi, balki subyektning umumiy iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligi darajasi ham aniq ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi.

Ilmiy-metodologik nuqtai nazardan O'zbekistonning barqarorlik reytingi tizimi ESG va Doing Business kabi global reyting tizimlaridan asosiy maqsadi, baholash mezonlari va qo'llaniladigan indikatorlar bazasi jihatidan sezilarli farq qiladi. Mazkur tizimning asosi fiskal faoliyat, soliq majburiyatlarini bajarish sifati, raqamli hisobot yuritish madaniyati va iqtisodiy xulq-atvorni avtomatlashtirilgan raqamli baholash orqali aniqlashga qaratilgan. S&P Global Ratings kredit risklarini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lsa, O'zbekiston reytingi soliqqa oid real vaqtli intizomni aniqlovchi vosita sifatida shakllangan. Shu bois, bu tizim davlatning fiskal boshqaruv mexanizmlarini mustahkamlovchi, soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshiruvchi va davlat-biznes munosabatlarida ishonchni mustahkamlovchi ishonchli interfeys vazifasini bajaradi.

Xulosa va takliflar.

Barqarorlik reytingi tizimi soliq va fiskal intizomni raqamli baholash orqali yuridik shaxslarning iqtisodiy intizomini tahlil qilishda innovatsion vosita sifatida qaralayotgan bo'lsa-da, uning amaliy qo'llanishi davomida ayrim metodik kamchiliklar va suiste'mollik holatlari aniqlanmoqda. Ilmiy-nazariy yondashuv shuni ko'rsatadiki, mezonlarning ba'zilar tadbirkorlik subyektining real iqtisodiy samaradorligini to'laonli aks ettira olmaydi yoki statistik noto'g'ri talqinlarga olib kelishi mumkin. Xususan, reyting tizimida mavjud ayrim indikatorlar tahliliy aniqlikni ta'minlamay, baholash natijalarining ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, ayrim mezonlarning formulalari yoki baholash algoritmlari ob'ektivlik tamoyiliga to'liq mos kelmaydi. Quyida aniqlangan asosiy amaliy kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha tizimli, nazariy va texnologik asoslangan takliflar keltiriladi.

Birinchidan, faoliyat davrini hisoblashda faqatgina davlat ro'yxatidan o'tgan sanani mezon sifatida qabul qilish, subyektning real xo'jalik faoliyatini, ya'ni mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish, realizatsiya qilish yoki xizmat ko'rsatish kabi operatsion harakatlarini hisobga olmaslikda, reytingda noto'g'ri baholash xavfini yuzaga keltiradi. Bu yondashuv faoliyat boshlamagan, lekin tashkiliy-huquqiy jihatdan ro'yxatdan o'tgan subyektlarga nisbatan asossiz yuqori ball berilishiga olib keladi. Natijada iqtisodiy faoliyatsiz, ammo "yosh" ko'rinadigan yuridik shaxslar soliq siyosatida imtiyozlarga ega bo'lib qolishi mumkin. Ilmiy-nazariy jihatdan, bu holat reyting tizimining samaradorligi va adolatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda reytingni moliyaviy tahlil vositasi sifatida ishonchliligi pasaytiradi. Shu sababli, faoliyat davrini baholashda faqat rasmiy ro'yxatdan o'tgan vaqt emas, balki real xo'jalik faoliyatining boshlanish sanasi, masalan, birinchi tovar aylanmasi, ishchi yollash yoki bank operatsiyalari boshlanishi asosida aniqlanishi lozim.

Ikkinchidan, ko'chmas mulk mavjudligi bo'yicha 12 oydan kam muddatda foydalanilgan ob'yektlarga reyting tizimida to'liq ball berilishida baholashda sun'iylik xavfini oshiradi. Ilmiy nuqtai nazardan, ko'chmas mulk mulkdorligi va undan foydalanuvchanlik muddati korxonaning operatsion barqarorligi va infratuzilma jihatidan mustahkamligini aks ettirishi kerak. Agar ob'jekt faqat qisqa muddatli ijara asosida yoki texnik hujjatlarda mavjud bo'lib, real

faoliyat yuritilmagan bo'lsa, bu holat reytingni noto'g'ri shakllantirishga olib keladi. Shuningdek, 12 oydan kam foydalanilgan, lekin QQS qaytarish yoki imtiyoz olish maqsadida rasmiy hujjatlashtirilgan ko'chmas mulklar orqali subyektlar reytingni sun'iy oshirishga urinmoqda. Shuning uchun reyting tizimida ushbu mezon faqat real foydalanish muddati asosida, EHF, bank operatsiyalari yoki kommunal to'lovlar kabi obyektiv manbalar orqali tasdiqlangan holatlarga asoslanib baholanishi lozim.

Uchinchidan, ish haqi jamg'armasining sun'iy ravishda yuqori ko'rsatilishi orqali ball to'plashda korxonalar qisqa muddatli davrda ayrim xodimlarga haddan tashqari yuqori maosh ko'rsatib, reyting tizimidan ortiqcha ball olishga urinmoqda. Bu manipulyativ usullar reytingning ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, moliyaviy oqibatlar yuzaga keltirishi mumkin. Ilmiy jihatdan bu holat bandlikning rasmiy ko'rsatkichlarini noto'g'ri talqin qilishga olib keladi va makroiqtisodiy statistikaning buzadi. Amaliyotda esa bunday holatni aniqlash uchun ish haqi dinamikasi, xodimlar o'zgaruvchanligi, soliq va sug'urta badallari bo'yicha tahliliy indikatorlar, shuningdek elektron to'lov tizimlaridan olingan ma'lumotlar asosida avtomatik monitoring mexanizmlarini joriy etish tavsiya etiladi.

To'rtinchidan, hisobotga ko'p martalik tuzatmalar kiritishda indikator subyektning (KPMG, 2022; Abdullayev, 2024) ichki nazorat tizimining zaifligini, buxgalteriya hisobining aniqlik darajasini va soliq majburiyatlariga mas'uliyatli yondashuv yetishmasligini aks ettiradi. Ilmiy-nazariy yondashuvda bu holat axborot asimmetriyasi va agentlik muammosi kontekstida qaraladi, ya'ni davlat organlariga yetkazilayotgan ma'lumotlar sifati va ishonchliligi pasayadi. Ayniqsa texnik yoki normativ o'zgarishlar sababli majburiy ravishda amalga oshirilgan tuzatmalar holatida avtomatik tarzda penal ball belgilanishi reyting tizimining adolatligiga salbiy ta'sir qiladi. Shu sababli, tuzatmalarni baholashda ularning sabablari, chastotasi va miqyosi asosida differensial penalizatsiya yondashuvi joriy etilishi tavsiya etiladi.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi tizimini takomillashtirish uchun mezonlar kesimida avtomatlashtirilgan monitoring va anomaliya aniqlash algoritmlarini joriy etish, ballarni differensiallashtirishni chuqurlashtirish, raqamli auditga asoslangan baholashni kengaytirish hamda eksport salohiyati, ekologik javobgarlik va innovatsion faoliyat kabi yangi indikatorlarni tizimga integratsiyalash zarur bo'lib, bu yondashuv reyting tizimini statik mexanizmdan real iqtisodiy samaradorlikni baholovchi dinamik va prediktiv platformaga aylantiradi.

Shu orqali reyting tizimining ishonchliligi, metodologik aniqligi, va raqamli shaffofligi ta'minlanadi. Baholash jarayonida inson omilining kamaytirilishi, subyektlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarning yanada aniq ifodalanishi hamda risklarga asoslangan selektiv yondashuvning kuchaytirilishi mumkin bo'ladi. Takomillashtirilgan tizim nafaqat soliq organlari uchun monitoring va nazorat mexanizmi, balki moliyaviy institutlar uchun kredit reytingi alternativasi, tadbirkorlik subyektlari uchun esa o'z-o'zini tahlil qilish va raqobatbardoshlik darajasini baholash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Barqarorlik reytingi O'zbekistonda zamonaviy raqamli fiskal boshqaruvning strategik institutsional asosi sifatida (Abdullayev, 2024) shakllanib bormoqda. U davlat va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida ishonchga asoslangan fiskal muloqotni shakllantirish, ularning o'zaro munosabatlarini raqamli monitoring va tahlil orqali samarali boshqarishga xizmat qiladi. Reyting tizimi doirasida yuridik shaxslarning soliq intizomi, moliyaviy barqarorligi, raqamlashtirish darajasi va ijtimoiy mas'uliyati kabi asosiy indikatorlar real vaqt rejimida avtomatik axborot tizimlari orqali baholanadi. Natijada, bir tomondan, soliq ma'muriyatchiligi soddalashadi va subyektiv yondashuvlar kamayadi; ikkinchi tomondan, davlat resurslarini differensial taqsimlash, rag'batlantiruvchi fiskal siyosat yuritish va iqtisodiy xavflarni oldindan bashorat qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Ilmiy-nazariy jihatdan, reyting tizimi iqtisodiy samaradorlik, fiskal intizom, moliyaviy shaffoflik va institutsional barqarorlikni o'lchovchi kompleks indikatorlar orqali tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tizimli baholash imkonini beradi. Bu yondashuv iqtisodiy xatti-

harakatlarning modellashuvi, tavakkalchilik darajasining aniqlanishi va davlat–xususiy sektor oʻrtasida optimal tartibga solish munosabatlarini shakllantirishda nazariy asos vazifasini bajaradi. Amaliy jihatdan esa, bu tizim yirik va oʻrta biznes subyektlarining reyting asosida ragʻbatlantirilishini, kichik va rasmiylashmagan subyektlar esa soliq intizomi va iqtisodiy faollik orqali reyting mezonlariga moslashib borishini taʼminlaydi. Shu tariqa reyting tizimi iqtisodiy formalizatsiya jarayonining vositachisi sifatida samarali ishlaydi.

Mezonlar tizimi esa zamonaviy soliq siyosatining ustuvor yoʻnalishlariga, jumladan fiskal barqarorlik, raqamli transformatsiya, inklyuziv iqtisodiyot va samarali moliyaviy boshqaruv tamoyillariga mos ravishda doimiy ravishda takomillashtirib borilishi zarur. Bu takomillashtirish mezonlar formulasining qayta koʻrib chiqilishi, ularning statistik va iqtisodiy asoslanganlik darajasini oshirish, shuningdek xalqaro reyting agentliklarining ilgʻor metodologiyalariga integratsiyalash orqali amalga oshiriladi. Bunday yondashuv nafaqat soliq boshqaruvining ishonchliligini oshiradi, balki u orqali soliq siyosati raqamli iqtisodiyot sharoitida barqarorlik, adolat va samaradorlik prinsiplariga tayanadi.

Adabiyotlar /Jumepamypa/References:

- Abdullayev, Z.S. (2024). *Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi: zamonaviy yondashuvlar va raqamli monitoring mexanizmlari. O'zbekiston sug'urta bozori, №2, 43–58.*
- Aripov, A.N. (2024). *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-yanvardagi 55-sonli Qarori. Toshkent: www.lex.uz. [Online] Available at: <https://lex.uz/docs/6823652>*
- ESG Reporting Guide (2023). *Environmental, Social, and Governance (ESG) Metrics: A Practical Guide. Geneva: UN Global Compact. [Online] Available at: <https://www.unglobalcompact.org/library>*
- Fitch Ratings (2023). *Corporate Rating Criteria. New York: Fitch Group. [Online] Available at: <https://www.fitchratings.com>*
- KPMG International (2022). *Sustainability Reporting Survey 2022. Zurich: KPMG Insights.*
- Louche, C. and Hebb, T. (2017). *Socially Responsible Investment in the 21st Century: Does it Make a Difference for Society? Cheltenham: Edward Elgar Publishing.*
- Mirziyoyev, Sh.M. (2024). *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-39-son qarori: Barqarorlik reytingi tizimini joriy etish to'g'risida. Toshkent: Prezident. [Online] Available at: <https://lex.uz/docs/6782831>*
- Nurmatov, Sh. (2024). *Reyting tizimida indikatorlar va ularning vazn koeffitsientlari. TDIU ilmiy axborotnomasi, №4, 18–26.*
- OECD (2021). *Digital Transformation in Government: Tackling Challenges for Inclusive and Sustainable Growth. Paris: OECD Publishing.*
- S&P Global Ratings (2023). *Methodology for Assessing Sovereign Creditworthiness. London: S&P Global Inc. [Online] Available at: <https://www.spglobal.com>*
- World Bank (2020). *Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies. Washington D.C.: World Bank Group.*
- World Bank (2024). *Business Ready 2024: Pilot Framework for Private Sector Development. Washington D.C.: World Bank. [Online] Available at: <https://www.worldbank.org/businessready>*
- Yakshiboeva, M. (2024). *Raqamli fiskal boshqaruvda barqarorlik indikatorlarining baholash metodikasi. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №6, 35–42.*